

OYBEKNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti

O'zbek tili yo'nalishi talabasi

Yangiboyeva Gulnozaxon

Annotatsiya

Ushbu maqola Oybekning adabiy-tanqidiy faoliyatini o'rganish va o'zbek tanqidchiligidagi ahamiyatini ochib beradi. Adibning tanqidiy maqolalari va asarlari bilan o'zbek adabiyotshunosligida adabiy tanqidning rivojlanishidagi o'rni va qo'shgan hissasini tahlil qiladi. Oybek o'zining tanqidiy qarashlari orqali, maqolalarida tanqidiy jarayonlarni baholashi, har bir masalaning tub mohiyatini mohirona tahlil qilishini yoritib beradi. Shuningdek, uning bu yo'nalishdagi, ya'ni uning adabiyotshunoslik va tanqidchilikdagi ijodiy faoliyati atroflicha, chuqur o'rganilmay kelganligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Oybek, adabiy tanqid, tanqidiy metod, tanqidchilik, tanqidiy maqola, adabiy jarayon, adabiyotshunoslik, o'zbek adabiyoti.

Abstract

This article explores the literary and critical activity of Oybek and reveals his significance in Uzbek criticism. It analyzes the role and contribution of the writer to the development of literary criticism in Uzbek literary studies through his critical articles and works. Through his critical views, Oybek sheds light on the assessment of critical processes in his articles and skillfully analyzes the essence of each issue. It also examines the fact that his creative activity in this area, that is, in literary studies and criticism, has not been studied in detail and in depth.

Keywords: Oybek, literary criticism, critical method, criticism, critical article, literary process, literary studies, Uzbek literature.

Аннотация

В данной статье исследуется литературная и критическая деятельность Ойбека и раскрывается его значение в узбекской критике. Критические статьи и работы автора анализируют его роль и вклад в развитие литературной критики в узбекском литературоведении. Через призму своих критических взглядов статьи Ойбека подчеркивают его оценку критических процессов и умелый анализ фундаментальной сущности каждого вопроса. Также рассматривается тот факт, что его творческая деятельность в этой области, то есть его литературоведение и критика, не была изучена достаточно глубоко.

Ключевые слова: Ойбек, литературная критика, критический метод, критика, критическая статья, литературный процесс, литературоведение, узбекская литература.

KIRISH

Oybek o'zbek adabiyotining yetakchi namoyondalaridan biri. Uning adabiy - tanqidiy qarashlari o'zbek adabiyotining yangi yo'nalishlarga olib kelishda muhim o'rin tutadi. Oybekning tanqidiy asarlarida adabiyotning jamiyatdagi ahamiyati, uning tarbiyaviy va ijtimoiy vazifalari yoritilgan. U adabiy ijodda realistik va xalqchiligi mezon sifatida belgilaydi. Oybek 1930-1960 yillarda ko'plab yosh adiblarning shakillanishiga va rivojlanishiga ko'maklashgan. Oybekning 50 dan ortiq maqolalari va tanqidiy izohlarida ma'rifatparvarlik g'oyasini ilgari surishi ahamiyatga ega. Oybek tabiatidagi ilmiy-tanqidiy merosidagi kishini lol qoldiradigan narsa, qiziqish doirasining benihoyat kengligidadir. U faqat o'zbek adabiyoti emas, qardosh xalqlar adabiyoti haqida teran maqolalar yozdi. Yozganda ham muammolarni chuqur bilim bilan qalamga olib, har bir masalaning tub mohiyatini yoritdi. Pushkin va Shevchenkoga, Muqimiy va Chexovga, antik dunyo adabiyotiga, mumtoz

adabiyotga bag'ishlangan maqolalarida Oybek masalaga qomusiy bilimdonlik bilan yondashdi. "Oybek iste'dodining olmos qirralaridan biri - uning adabiyotshunoslik va tanqidchilik faoliyatida yarqirab ko'rinadi", deb yozadi munaqqid Ozod Sharafiddinov. O'zbek tanqidchiligida janrlar va ularning tabiati, mahorat masalalarini o'rganishda Oybek ijodi hali ko'p xizmat qiladi. U adabiy-tanqidiy qarashlari shakllanishining ilk bosqichidagi «Adabiyot qoidalari», «Cholpon. Shoirni qanday tekshirish kerak», «Munaqqidning munaqqidiga» singari maqola va taqrizlarida ayrim cheklanishlarga yo'l qo'ysada, o'rganilayotgan masalaning tub mohiyatini yoritish, munaqqidlik faoliyatining bosh a'moli bo'lib qoldi. Oybekning "Tanqid sohasida savodsizlik va ur-yiqitchilikka qarshi o't ochaylik" (1933) maqolasi davming xuddi shu dolzarb talablariga javob sifatida maydonga keldi. Unda tanqidagi vulgar sotsiologizmning qo'pol ko'rinishlari keskin fosh etildi. Natijada Hamid Olimjon ijodi asossiz hujumlardan asrab qolindi. Maqola adabiyotning, tanqidning to'g'ri yo'ldan borishiga ko'p jihatdan yordam berdi. Ammo maqola shoirning ko'proq sotsialistik tuzum bilan bog'liq she'rlariga diqqatini qaratadiki, buni davr siyosatining ehtiyoji sifatida izohlash mumkin.

Oybek maqolalarining ko'pi 30-yillarda yozilgan, biroq ulami o'qisangiz kecha yoki bugun yozilgandek taassurot qoldiradi. Ular kuchli shoir ruhi bilan sug'orilgan. Bu maqolalardagi umrboqiylikning siri ikki narsada ko'rinadi:

1. Oybek hech vaqt oson va yuzaki yo'lni tanlamadi, quruq tavsif qilish yoki bayonchilik yo'lidan yurmadi, uning har bir maqolasi asosida tinimsiz izlanuvchan, shiddatli, xolis tafakkur yotadi.

2. Dcyarli har bir maqolada olim nazari bilan badiiy ijodkor yuragi tutashadi, balqib turadi. Ularda tadqiqotchining sinchkov tafakkuriga emas, san'atkorning qaynoq qalbini ham his qilamiz. Ularda ehtiros kuchli, yuksak didli kuzatuvchining o'tkir nigohi bor, qaysi ijodkor haqida yozmasin, unga muhabbat va hurmat bilan yondashadi.

XULOSA

O'zbek adabiy tanqidchiligining shakillanishida Oybekning ham alohida o'rni mavjud. Oybek ijodini jo'shib, to'lib turgan teran dengizga qiyos qiladilar. Bu dengiz doimo to'liqib, to'lqinlanib, mavjlanib turadi, ular ichida tanqidiy tafakkur to'lqinlarining o'ziga xos o'rni bor. Shu ma'noda Oybek badiiy ijodi ham, adabiy-tanqidiy qarashlari ham mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi eng to'g'ri yoldir. Oybek ilmiy faoliyatini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar adibning faoliyatining ayrim yoritilmagan jihatlarini ochdi. Shuningdek, Oybek ijodini o'rganishda yangicha yo'nalishlar aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Naim Karimov. Oybek Cho'qqisi .2014
2. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi . B.Nazarov, Q.Qahramonov, Sh. Axmedov. T.2012
3. Naim karimov Oybek T.1985
4. Adabiy o'ylar T.1985

Internet ma'lumotlari :

1. Ziyoz.uz
2. Arxiv.uz
3. Kh Davron.uz
4. Jadid.uz